

Xayriddin Sultonovning lingvistik mahorati

Tursunova Shohsanam

Navoiy davlat pedagogika institutining tayanch doktoranti

Annotatsiya: Xayriddin Sultonov o'zbek adabiyotida o'zining uslubiga, ovozigiga va alohida o'rniga ega bo'lgan ijodkor hisoblanadi. Ushbu maqola orqali Xayriddin Sultonovning so'z tanlash, qo'llash mahorati, o'zigagina xos bo'lgan uslubi haqida fikr yuritiladi. Adib hikoyalarida qalamga olgan qahramonlarning nechog'li hayotiy ekanligi ularning xatti-harakatlari bilan bir qatorda, yozuvchining nihoyatda topqirligi natijasida qo'llagan so'zlari orqali anglashiladi. Quyida adib hikoyalari timsolida yozuvchining badiiy mahorati xususida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: so'z, ibora, tasvir, badiiy asar tili, uslub, jumlar joylashuvi, lirik, tragik, hajviy ruh, personaj nutqi, muallif nutqi, tahliliy munosabat, mavzu, kompozitsiya, poetika;

Annotation: Khairiddin Sultanov creates creativity that has its own style, voice and special place in Uzbek literature. Through three articles, Khayriddin Sultanov's ability to speak, use, and unique style are discussed. In the stories of the writer, the characters who die in the pen can be understood through the words used by the writer as a result of his ingenuity. tells about the writer's artistic skills in the form of special literary stories.

Key words: word, phrase, image, language of artistic work, style, arrangement of sentences, lyrical, tragic, comic spirit, character's speech, author's speech, analytical attitude, theme, composition, poetics;

Аннотация: Хайриддин Султанов создает творчество, имеющее свой стиль, голос и особое место в узбекской литературе. В трех статьях обсуждаются умение Хайриддина Султанова говорить, использовать его и уникальный стиль. В рассказах писателя героев, умирающих в загоне,

можно понять через слова, использованные писателем в результате его изобретательности. рассказывает о художественном мастерстве писателя в форме специальных литературных рассказов.

***Ключевые слова:** слово, фраза, образ, язык художественного произведения, стиль, расположение предложений, лирический, трагический, комический дух, речь персонажа, авторская речь, аналитическая установка, тема, композиция, поэтика;*

XX asr o'zbek adabiyotida realistik hikoya janrining shakllanishida beqiyos o'rin tutgan Abdulla Qahhor ijodiy ustaxonasi kuzatilganda, adib ikkita yon daftar tutgani, bittasi umumiy daftar bo'lib, unga so'z, ibora, tasvir, sujetlar, faktlar-u turli voqea-hodisalarni yozib yurgani va biron-bir asar ustida ishlash jarayonida ulardan foydalangani ma'lum bo'ladi. «Ikkinchi daftar — ayrim asarga doir bo'lib, bunga ana shu asarga tegishli nima narsa esga kelsa, shuni yozib boraman: detallar, qahramon va personajlarning so'zlari, xarakterlariga oid gaplar... Men asarni shu daftar to'lgandan keyin, ya'ni xarakterlar yetilgandan keyin yozishga kirishaman», degan edi ustoz adib.

Abdulla Qahhor o'z ijodiy tajribasidan kelib chiqib: «Kitobxonga bir fikrni yoki bir narsani anglatish uchun kishining boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon, sodda til kerak», degan edi. Uning so'zga talabchanligi, fikrni ixcham jumlada, aniq, lo'nda ifodalagani, o'ziga xos uslub yaratgani ma'lum. Bu borada o'z davrida undan o'rganganlar, unga ergashganlar, bugungi kunda-da uning shaxsiyati ham, badiiy mahorati ham ijod ahli uchun ibrat bo'lib qolmoqda. Demak, ijodda so'zni o'rnida qo'llash, unga e'tiborli bo'lish, ortiqcha tafsilotlardan tiyilish yozuvchi mahoratini ta'minlaydigan omilki, bu narsa Xayriddin Sulton hikoyalarida ham ko'zga tashlanadi.

Tadqiqot obyektimiz bo'lgan davr hikoyalarida badiiy til borasida yangilanishlar, o'ziga xosliklar kuzatiladi. Jumladan, muallif nutqining asardagi ko'rinishlari boyib, voqelikka, personajlarning xatti-harakatiga munosabat

bildirish, qahramon ruhiyatini chuqurroq ochish, qahramon obrazi yoki voqeani tasvirlash madaniyatida yangi estetik-badiiy tamoyillar ko‘zga tashlana boshladi.

Umuman, inson ichki olamini bor ziddiyatlari bilan yoritish tamoyili kuchaygan ushbu davr adabiyotida qahramonning nima haqda o‘ylayotgani, xohish-istaklari, his-tuyg‘ulari, qalb tug‘yonlarini ifodalashda yangi tasvir, usul va vositalariga ehtiyoj paydo bo‘ldiki, buni Xayriddin Sulton va unga avloddosh yozuvchilar zukkolik bilan sezdilar.

Xayriddin Sultonning til masalasida talabchanligi uning har bir jumla va so‘zga nisbatan o‘ta jiddiy, ehtiyotkorlik bilan yondashishida ko‘rinadi. Yozuvchi hikoyalarida ortiqcha tafsilotlar uchramasligi, ularning uzundan-uzoq izohlar, jimjimadorlik va balanparvoqlikdan xoliligi, jummalarning ixcham, aniq, ravon tuzilgani, sodda bayon orqali teran ma’no, purhikmat fikrlar ifodalanishi uning badiiy tildan mahorat bilan foydalangani tufaylidir. Adib hikoyalarining tili har birining mavzui (oilaviy-maishiy, ijtimoiy-axloqiy, tarixiy va hokazo), ohangi (lirik, tragik yoki hajviy ruhda ekani), qahramonlar xarakteriga mos ravishda alohida tovlanib turadi.

Yozuvchining o‘zi ham til jozibasi va sehriga shu qadar berilib ketadiki, ba’zan muallif nutqi bilan qahramon nutqi bamisoli musobaqaga kirishgandek bo‘ladi.

Uning ilk hikoyalar to‘plami nashr etilganidayoq adabiy jamoatchilik o‘zbek nasriga lutfi kalomi shirin, tilni mukammal egallashga intilayotgan yosh ijodkor kirib kelganini ta’kidlagan edi. U haqda: «Iliq, sof bir muhabbat bilan, butun yurak haroratini berib yozadi. «Yozadi» so‘zi yosh adibga nisbatan qo‘llanganda xiyla g‘arib ko‘rinadi, nazarimizda... Har qalay, Xayriddin Sulton asarlarida so‘z, jumlar joylashuvi maqsadga shunchalik muvofiq tanlangan, o‘rni-o‘rniga qo‘yilgan bo‘ladiki, siz ba’zan badiiy asar o‘qiyotganingizni ham unutib qo‘yasiz. So‘zlar, iboralar, jumlar ko‘z o‘ngingizda aniq predmet va obrazlar qiyofasiga kira boradi», degan fikr bildirilgan edi.

Xayriddin Sulton uchun so‘z nafaqat bayon etish, balki asosan manzara chizish, tasvirlash, ko‘rsatish vositasidir. Uning asarlarida so‘z o‘zgacha bir sehu

jozibaga ega. Bu yozuvchining soʻzni aniq his qilishi, uning bor poetik imkoniyatlaridan badiiy maqsad yoʻlida barakali foydalanishga intilishidandir. Tarjimon Nizom Komil bu haqda quyidagicha fikr bildirgan edi: «Uning Bobur Mirzoga bagʻishlangan esselarini ham, hikoya va qissalarini ham adabiyotimizning, xususan, prozamızning goʻzal namunalari safiga qoʻshsak, hech kimning haqqi ketmaydi. Ularda qalb harorati bor, dard bor, kishini oʻziga jalb etadigan nafosat va joziba bor. Xoʻsh, Xayriddin bunga qanday erishdi? Albatta, Soʻz orqali-da. Yozuvchining oʻrogʻi ham, ketmoni ham — soʻz. Soʻzning oʻzi Xayriddinning ortidan ergashib yuradi, meni ishga buyuring, deb etagiga yopishib oladi».

«Badiiy asar tili sof, sodda, samimiy, mardona boʻlishi kerak. Buning talablari juda koʻp, lekin adib avvalambor jonli xalq tilini, mumtoz adabiyotimiz tilini har tomonlama chuqur bilishi zarur, deb hisoblayman», deya fikr bildirgan X.Sultonning hikoyalarida ayni shu xususiyatlarni kuzatish mumkin.

Uning ilk hikoyalari aksar xabar mazmunidagi, masalan, «Yonboshbuloqqa kuz erta tushdi» («Chollar palatasi»), «Ular ikki haftadan buyon yaydoq Yayilma dalalarida kartoshka kavlashardi» («Chayladagi toʻrt erkak»), «Birinchi boʻlib Islomboy keldi» («Yo, Jamshid!») kabi muallif tomonidan aytiladigan oddiy darak gap bilan boshlangan boʻlsa, ayrimlari «E, boʻldi-da, ota, odamni nomuslarga oʻldirdingiz-ku! Shu yerdan koʻchib ketsam qutulamanmi sizdan?!» («Gʻulomgardish») yoki «Shunaqa... Yer yuzidagi toʻrt milliard odamga yetgan havo menga yetmaydi...» («Dunyoning siri») singari personaj tomonidan aytiladigan soʻzlar bilan boshlanadi.

Maʼlumki, har qanday asarning dunyoga kelishiga nimadir turtki boʻladi. Yozuvchi uni butkul toʻqib chiqarmaganidek, hayotdan boricha koʻchirib ham olmaydi. Masalan, koʻpgina mumtoz adiblarning mashhur asarlariga hayotiy voqealar asos boʻlgan. Viktor Gyugoning «Xoʻrlanganlar» romani yaratilishiga bir yepiskop hayotidagi real voqea sabab boʻlib, yepiskopning gʻayrioddiy bir mehribonlik, insoniylik fazilatlari yozuvchini qiziqtirib qolgan. Yoki Turgenevning «Mumu» hikoyasidagi «barinya» obrazida yozuvchining onasi

tasvirlangani ma'lum. Gerasim va uning kuchukchasi bilan bog'liq voqealar ham aynan hayotdan olingan. Gogolning «Shinel»ni yozishiga esa do'stlaridan eshitgan bir kambag'al chinovnik to'g'risidagi latifa bahona bo'lgan. (U vaqtlarda latifa deganda hayotda bo'lib o'tgan qiziqarli biror voqea tushunilgan.) Demak, badiiy asarning hayotiy haqiqatga asoslanishi ko'pincha uning ommalashishini, muhimi, o'lmas durdonaga aylanishini ham ta'minlagan.

Misol tariqasida «Grajdan mudofaasi» hikoyasi qahramoni — Hikmat obraziga to'xtalib o'tamiz. Asar uning xarakteriga oid chizgilar bilan boshlanadi: «Go'dakning oddiy xarxashasi ham unga Shekspir tragediyalaridan ko'ra kuchliroq ta'sir qilardi» tarzidagi bir oz mubolag'ali ta'rif Hikmatning tabiatan nihoyatda ta'sirchan, ko'ngilchanligidan darak beradi. Farzand ko'rgach esa u batamom tinchini yo'qotadi — endi uning hayotidan xavotirga tushadi. Hikmatning bu fe'li o'zi to'qnash kelgan har qanday hodisaning xunuk oqibatlarini tasavvur qilishi, xayolan ularni boshdan kechirishi, farzandi va yaqinlariga zarar yetkazishi mumkinligini o'ylab siqilishiga sabab bo'ladi. Uning shu holatini yozuvchi andak mutoyiba aralash bunday ta'riflaydi: «Chinor kavagida — kaptar, kaptar qornida — tuxum, tuxum ichida — devning joni, deya cho'pchaklarda naql qilinganidek, u ham mitti zurriyodining jonu jahoni o'zining ko'ksida, ko'zida, lablariyu tomirlarida nihon ekanini qariyb jismoniy og'riq bilan his etardi». Muallif qahramonning bu holatga tushishini avvaldan dalillab keladi. Hikmat ruhan xavotirga tayyor. U mudom ana shunday kayfiyatda yashaydi, bu uning har bir xatti-harakatida ko'rinadi. Grajdan mudofaasi mashg'ulotlari, buning ustiga, xalqaro ahvolning tahlikali ekani haqidagi televideniye va matbuot ma'lumotlari uning qo'rquv ko'zlarini battar ochib yuboradi. Hikmat timsolida hayotning faqat mudhish, qorong'i tomonlarini o'ylab o'z-o'zini qiynayotgan inson obrazi namoyon bo'ladi: «Ey, yorug' dunyo, ey, bebaho olam! Bunchalar go'zal, bunchalar g'ofilsan! Nahot seni hududsiz mozoristonga aylantirmoq shunchalar oson?! E, parivash sanamlar, e, o'ktam yigitlar, buncha g'ofil, buncha beg'amsiz?!» Shu o'rinda Hikmatning xiyla romantikligi ham ko'zga tashlanadi.

Qahramonning o'zini tutishi, har bir harakatlariga nisbatan yozuvchining bir oz kinoyali, bir oz dramatik tarzda munosabati seziladi. (Har qanday hodisadan katta fojia yasaydigan, shu barobari, o'z hayotini ham fojiaga aylantirish darajasiga yetgan odam ko'z o'ngimizga keladi.) Bu jihatdan muallifning obraz yaratishda A.Chexov va A.Qahhor tajribalaridan bahramand bo'lgani ko'rinadi. Odatdagi maishiy hayot hodisalarida umuminsoniy ahamiyatga molik jihatlarni ko'ra bilish, qahramon obrazini uning ziddiyat va iztiroblarga to'la ruhiy olamini tasvirlash orqali aks ettirish – Xayriddin Sultonga xos xususiyat. Yozuvchi qahramonning telbalikka aylanayozgan xatti-harakatlarini tabiiy voqealar silsilasida kuzatadi. Hikoya so'ngida qahramon beixtiyor o'zidan, qilayotgan ishlaridan uyaladi: «Chindan ham temir qo'rg'on bitdi, deylik, ichiga kirib olishga ulgurdi ham deylik, ammo atrofda na bir tirik jon, na bir giyoh bo'lmasa, bunday hayot...» Hikmatning ongi o'zini, harakatlarini tahlil qilish, nafaqat tahlil, balki tanqid qilish darajasida uyg'onadi. Mana shu jihati bilan Hikmat yangi obrazdir.

Hikmat shu narsani anglab yetadiki, chinakam inson faqat o'zi, yaqinlari haqidagina emas, balki butun insoniyat haqida qayg'urishi kerak, chunki u yakka o'zi hech kim emas. Hikoyadagi asosiy g'oya qahramonning ana shu haqiqatni anglab yetishi orqali ma'lum bo'ladi. Muallif insoniyatning urushga bo'lgan nafratini, hamjihatlik esa tinchlikning asosiy omili ekanini shu yo'sinda ifodalaydi.

Adibning yuqorida tilga olingan «Do'stim Esonboy» hikoyasi sof hikoya-xarakter yo'nalishidagi asardir. Unda asosiy e'tibor Esonboy xarakterini chizishga qaratilgan. Esonboy soddaligi, samimiyligi bilan ko'ngilga qandaydir bir iliqlik olib kiradi. Uning xarakteri muayyan bir vaqtda, holatda, atrofida g'ildirak munosabatida, muammolarga duch kelganida o'zini tutishi orqali oydinlashadi. Esonboy - oddiy, kamsuqum, soddadil, yuvosh odam. Shunga qaramay, do'stlari muammoyu mojarolarini hal etishda ko'pincha unga murojaat qilishadi va u bu ishni uddalaydi. Esonboy har qanday vaziyatda ham og'ir-bosiqlik bilan ish tutadi. Hatto o'zini ranjitganlarga ham qattiq gapirmaydi. Esonboy «hammamiz

bir odam» degan gapni ko‘p qaytaradi. Birgina mana shu gapi uning qanday odam ekanini, xarakterini aniq ifodalaydi. Esonboy bu gapni anchayin aytib qo‘yaqolmaydi, aslida ham u hammani teng ko‘radi. Deyarli hayotiy e‘tiqodiga aylangan bu narsa Esonboyning ma‘nan baquvvatligidan darak beradi. O‘zining muammo-yu tashvishlari bo‘laturib boshqalarning tashvishini chekadi (do‘stining yo‘qolgan telegrammasi topilgan-topilmaganini so‘rash uchun atay uning ishxonasiga kirishi, Bodomtepaga, generalnikiga Ilhom akaning «Volga»sini plani to‘lmagani uchun! - kira qilib borishi kabi). Bunday odamlar gap-so‘zi, o‘zini tutishi, goho sodda-laqmaligi bilan, qisqasi, g‘alatiroq fe‘l-atvori sababli hayotda ko‘p qoqiladi, ba‘zan murakkab, ba‘zan kulgili vaziyatlarga tushib qoladi. Har uchala hikoya qahramonlari — Sanoqul bobo, Qori va Esonboyning tabiatidagi soddalik, lakalovlik ularni bir-biriga yaqinlashtiradi. Ularni xalq «afandi» deb ataydigan odamlar yoki g‘aroyib tabiatli kishilar sirasiga ham kiritish mumkin bo‘lsa-da, yozuvchi Said Ahmad ta‘kidlaganidek, «Esonboy singari insonlarga ishonish, ularga suyanish» ba‘zan zarurat bo‘lib qoladi. Shu jihati bilan ham ular milliy qahramonlardir. O‘rni kelganda ta‘kidlash kerakki, yozuvchi Erkin A‘zamning Ramazon («Anoyining jaydari olmasi»), Ko‘kaldosh («Bog‘bololik Ko‘kaldosh») kabi qahramonlari ham shu toifa obrazlardandir.

Kuzatishlarimizdan ma‘lum bo‘ldiki, yozuvchi odatda qahramonning tashqi qiyofasi — portreti, kiyinishi va yurish-turishiga e‘tibor qaratavermaydi, ko‘proq uning gap-so‘zi, atrofidaqilar bilan munosabat-muomalasi, o‘y-fikrlarini tasvirlash orqali xarakter yaratadi. Yozuvchini qahramonning ichki dunyosi, qalbini tahlil etish ko‘proq qiziqtiradi.

Ma‘lumki, janr tabiatiga ko‘ra aksariyat hikoyalarda muayyan bir voqea tasvirlanadi. Undagi qahramon asar boshidayoq shakllanib ulgurgan xarakter bo‘lishi mumkin. Xayriddin Sulton ayrim hikoyalarda qahramonni asar boshida tayyor xarakter sifatida ko‘rsatadi. Ammo keyin ma‘lum bir sabab, ta‘sir natijasida uning xakteri dinamik tarzda o‘zgarib borishi kuzatiladi. Qahramon ongida ro‘y bergan ziddiyatlar oqibatida hikoya so‘ngida u mutlaqo teskari evrilib ketishi ham mumkin. Muallif ko‘pincha asosiy e‘tiborni qahramonning voqea

tasvirlanayotgan paytdagi ruhiy olamini tadqiq etishga qaratadi. Buni «Qog‘oz gullar»da Omon G‘aniyevich, «Yo, Jamshid!»da O‘rinboy, «Grajdan mudofaasi»da Hikmat, «Yo‘qchilik va to‘qchilik»da Rahmatulla kabi qahramonlar timsolida kuzatish mumkin.

Adibning syujet yaratish mahorati haqida umumiy tarzda xulosa qiladigan bo‘lsak, u asar syujetiga o‘zi yaxshi biladigan, hayotda ko‘rgan, kuzatgan, mukammal o‘rgangan voqealarni asos qilib oladi. Qahramon tanlashda ham aynan shu yo‘ldan boradi. Hikoyalarda voqealar tafsilotidan ko‘ra unga nisbatan adibning tahliliy munosabati ustunlik qiladi. Yozuvchining ayrim hikoyalarida syujet voqealari keskin rivojlanadi, u kitobxonning qiziqishini oshiradi, unda syujet unsurlari aniq tasvirlanadi, ayniqsa yechim salmoqli ahamiyatga ega bo‘ladi. Masalan, «Grajdan mudofaasi», «Nomus» kabi hikoyalar.

Ma‘lumki, har qanday asar hayot haqiqatiga asoslanadi. Uni muayyan bir badiiy qolipga solish, jozibali va maroqli qilish esa syujet orqali amalga oshiriladi. Syujetni jonlantiradigan, uning tadrijini ta‘minlaydigan vosita esa konfliktdir. Zero, «syujet o‘zining chuqur mohiyati jihatidan harakat qilayotgan konfliktdir» .

«Syujetning puxta va ta‘sirchanligi undagi konfliktning mohiyati va shakliga, qanday hal qilinishiga bog‘liq. Agar asar mavzui muhim bo‘lib, konflikt zaifroq bo‘lsa, syujet ham sayoz bo‘ladi, ilgari surilayotgan g‘oya ta‘sirchanlik kasb etmaydi».

Aslida hayotning o‘zi ziddiyatlarga to‘la. Odamlar o‘rtasida qarama-qarshiliklar, to‘qnashuv va kurashlar bo‘lmasa, rivojlanish ham kuzatilmas, hayot g‘oyat zerikarli bo‘lib qolardi.

Bir muhitda ijod qilgan zamondosh, hamfikir ijodkorlarning ayrim o‘ziga xos jihatlari bir-biriga «yuqishi» tabiiy. Shu ma‘noda X.Sultonga xos insoniy e‘tiqod, ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni ulug‘lash xususiyatlari - E.A‘zamga, E.A‘zam qalamiga xos isyonkorlik, xarakter yaratishdagi kinoya, istehzoli uslub X.Sultonga ham ta‘sir etgan, deyish mumkin.

Xayriddin Sultonning badiiy-uslubiy izlanishlari yuzasidan umumiy tarzda xulosa qilib aytish mumkinki, ilk hikoyalariyoq yosh yozuvchining adabiyotda

o‘z so‘zini aytishga intilayotganidan, o‘z ovozigaga ega bo‘lish yo‘lida izlanayotganidan darak bergan edi. Odatda, chinakam yozuvchi asardan-asarga o‘tib boradi, yangi-yangi badiiy usul va vositalarni qo‘llaydi - doimo izlanishda bo‘ladi. Shu ma‘noda Xayriddin Sultonning izlanishlari samarali kechganini uning ijodidagi mavzu, kompozitsiya, poetika jihatidan bir-birini takrorlamaydigan hikoyalar tasdiqlaydi. Umuman, yozuvchi uslubi, badiiy mahoratidan darak beradigan eng muhim jihat, bizningcha, uning ijodida lirik tasvirning ustunligidir. U qanday mavzuda ijod qilmasin, bu usuldan samarali foydalanadi. Ayniqsa, Xayriddin Sulton ko‘p murojaat qilgan tarixiy mavzudagi hikoyalarda bu usul qo‘l kelgan. Uning Mirzo Bobur, Hofiz Ko‘ykiy, Qurbonjon do‘xoh, Abdulla Qodiriydek tarixiy shaxslar obrazlarini yaratganini bilamiz. Bobur haqida turli yillarda yozilgan hikoya va qissalari, shuningdek, «Bunchalar shirinsan, achchiq hayot!» (yozuvchi bu hikoyani «Oloy malikasi» nomli nashr ettirilmagan asaridan parcha deya izohlagan), «Ra‘no gulining suvi» tarixiy etyudlarida ham tasvir liro-romantik xarakter kasb etadi.

Darhaqiqat, Xayriddin Sulton ijodida lirikaga moyillik nafaqat hikoyalari, balki boshqa janrdagi asarlarida ham ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ta‘kidlash lozimki, yozuvchi asarlarida lirik tasvir orqali muhit, holat va manzarani romantik ruhda, rang-barang bo‘yoqlarda aks ettiradi. Bunday tasvir asarning mazmun-mohiyatiga singib, qahramonlar xarakteri, badiiy asarning ruhi va falsafasini ochishga xizmat qiladi. Adabiy tanqidchilikda Xayriddin Sulton uslubiga xos liro-romantik ruh uning buyuk Oybek ijodidan bahramandligi natijasi deya, fikr bildirilgan edi. Ustoz Oybek ijodida lirik tasvir ko‘proq jo‘shqin, ko‘tarinki pardalarda aks etgan. Xayriddin Sulton esa kundalik voqea-hodisalar, holatlar zahirida yashirin bo‘lgan goh o‘ychan, g‘amgin, ba‘zan esa hayotbaxsh lirizmni topadi va uni o‘quvchiga shoirona bir yo‘sinda yetkazadi. Masalan, «Olis «Artek» haqida xotiralar» hikoyasi mungli, mayus ruh uyg‘otuvchi ana shunday asardir.

Adibning «Onamning yurti» hikoyasi esa boshdan-oyoq lirizmga yo‘g‘rilgan. Uning mavzui, materiali shunday tasvir, shunday ohangni talab

etgan. Hikoya tili, bayon usuli nihoyatda ta'sirli, qo'shiq ohangini eslatadi, yengil o'qiladi.

Xayriddin Sulton asarlaridagi mayinlik, sokinlik uning yana bir o'ziga xos xususiyatidir. Adabiyotshunos I.G'afurov: «Uning (Xayriddin Sultonning — SH.S.) asarlarida nur va soyalar juda yumshoq, juda ham mayin raqsga tushadi. Rang va tonlarning shunday yumshoq tiniqligi sizning diqqatingizni tortadi», deb yozgan edi. Yana munaqqid ta'kidlaganidek, «Keskir qilichning dami juda ham, hatto ipakdan ham yumshoq bo'ladi. Xayriddin Sulton insonlarda, to'g'rirog'i, o'z qahramonlarida shunday keskir mayinlikni ochish, kashf qilishni sevadi.» Demak, aytish mumkinki, adib ijodiga xos muhim xususiyat tasvir etilayotgan voqea-hodisalardagi sokinlik, qahramonlar xarakteridagi mayinlik zamiriga yashiringan keskir, teran mohiyatdadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан кураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.178;
2. Q. Yo'ldoshev. Yoniq so'z. Adabiy o'ylar. – Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2006;
3. Sultonov X. "Odamlardan tinglab hikoya". –T.: "Adabiyot" 2020 7-bet;
4. Adabiyot va zamon. Maqolalar, adabiy o'ylar, suhbatlar. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. — 1981 yil. — B. 400;
5. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: «O'qituvchi», 2005;
6. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati. — Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, 2000. — B. 52;
7. H. Umurov. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, "Sharq", 2002. 38-bet;
8. Sultonov X. Onamning yurti. T. G.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1987. – B. 246;
9. Sultonov X. To'qchilik va yo'qchilik. T. Ma'naviyat. 2000. – B. 188;